

ELEKTRON KUNDALIKNI AFZALLIKLARI

Davlatova Muhabbat

*Surxondaryo viloyati Denov tumani
55-maktabning matematika fani o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqola turli sohalarda elektron kundaliklardan foydalanishning afzalliklarini o'rganib, raqamli vositalar tashkilot, mavjudlik va samaradorlikni qanday oshirishini ta'kidlaydi. So'nggi tadqiqotlarni tahlil qilish orqali ushbu maqolada raqamli kundaliklarning vaqtni boshqarish, mahsuldorlik va aqliy farovonlikka ta'siri ko'rsatilgan bo'lib, elektron kundaliklar bugungi raqamli landshaftda nima uchun qimmatli ekanligi haqida to'liq ma'lumot berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Elektron kundalik, vaqtni boshqarish, mahsuldorlik, mavjudlik, raqamli tashkilot, elektron vositalar, samaradorlik, aqliy farovonlik.

Tobora raqamlashtirilgan dunyoda an'anaviy qog'oz kundaliklar tezda elektron kundaliklar (elektron kundaliklar) bilan almashtirilmoqda. Ushbu raqamli vositalar shaxslar va tashkilotlarning jadvallarini boshqarish, vazifalarni kuzatish va kundalik faoliyatni hujjatlashtirish usullarini o'zgartirdi. Elektron kundalik kompyuterlar yoki mobil qurilmalar orqali kirish mumkin bo'lgan raqamli vositani nazarda tutadi, bu rejalashtirish, eslatma olish va vazifalarni boshqarish xususiyatlarini taklif etadi. Ushbu maqolada elektron kundaliklardan foydalanishning afzalliklari muhokama qilinadi, ular samaradorlikni oshirish, vaqtni boshqarishni yaxshilash va o'tkazib yuborilgan uchrashuvlar yoki vazifalar ehtimolini kamaytirishga qaratilgan.

Kundalik kompaniyasining metodisti mazkur platformadan foydalanish zarurligi va buning kelajagi haqida gapirib berdi hamda jamoatchilikning ko'p beriladigan savollariga javob berdi.

Bugungi kunda ko'plab sohalarda axborot texnologiyalari muvaffaqiyatli qo'llanmoqda. Bu O'zbekiston ta'lim tizimini ham chetlab o'tmadi. Maktablarda Kundalik raqamli ta'lim platformasining joriy etilishi ota-onalar va o'qituvchilar orasida ham qiziqish, ham savollarni keltirib chiqardi. Kundalik kompaniyasi metodisti Gulnora Ismoilova platforma nima uchun zarurligi haqida gapirib berib, ko'pchilikda yuzaga kelayotgan savollarga javob qaytardi.

□ O'zbekistonda elektron kundaliklar va jurnallarni joriy etish bo'yicha bir necha urinishlar bo'lgan. Kundalikplatformasining asosiy farqlari va afzalliklari nimadan iborat?

Elektron kundalik va jurnal, balki o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari: o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalar, maktab rahbarlari va nazoratchi idoralari uchun

yaratilgan raqamli ta'lim platformasidir. U onlayn rejimda darslar jadvalini tuzish, har bir dars uchun rejalar tuzish, davomat va o'zlashtirish hisob-kitobini yuritish, avtomatik ravishda hisobotlarni shakllantirishga imkon beradi. O'quvchi va ota-onalar Kundalikda baholar va uy vazifalarini ko'rishlari, xavfsiz tarmoqda muloqot qilishlari va qo'shimcha ta'lim resurslaridan foydalanishlari mumkin. Platformadan foydalanish juda oson, tug'iladigan savollarga esa qo'llab-quvvatlash xizmati mutaxassislari har doim javob berishga tayyor.

Fikrimga ko'ra, Kundalikning boshqa platformalardan asosiy farqi □ kompleks yondashuvda. Biz nafaqat ma'lum bir mahsulotni joriy etmoqdamiz, balki uning yordamida mamlakatdagi butun ta'lim sohasini modernizatsiya qilmoqdamiz: pedagoglarga kompyuter savodxonligini o'rgatmoqdamiz, maktablarning texnik jihozlanganligini ko'rsatib bermoqdamiz va ushbu haqqoniy ma'lumotlarni asl holida to'liq ta'lim vazirligiga taqdim etmoqdamiz, vazirlik esa, ular asosida zarur bo'lgan joylarda va hajmlarda infratuzilmani yaxshilaydi, kompyuterlar bilan ta'minlaydi hamda internetga ulaydi.

Bugungi kunda O'zbekistonda turli sohalarda raqamlashtirish jarayoni amalga oshirilmoqda va ta'lim sohasi birinchi navbatda bunday o'zgarishga muhtoj. Maktablar, o'qituvchilar tarkibining tayyor emasligi va boshqa cheklovchi omillar haqida tinmasdan gapirish mumkin. Ammo hech narsa qilinmasa, rivojlanish bo'ladimi?

□ Sizningcha, maktablar bunday o'zgarishlarga tayyormi?

□ Siz, hech nima qilmasdan o'tirish va ma'lum bir tayyorgarlik vaqti kelishini kutish kerak deb hisoblaysizmi? O'zbekistonda naqd pulsiz hisob-kitoblar qanday joriy etilganini eslang. O'sha paytda aholi bunday ssenariyga umuman tayyor emas edi, hech kim tushunarsiz va keraksiz bo'lib ko'ringan kartalardan foydalanishni istamagan edi. Ammo bu ish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun zarur edi. Ko'pchilik ulardan qanday foydalanishni tushunmas, do'konlar to'lovlarni amalga oshirish uchun terminallar bilan yaxshi jihozlanmagan edi. Va endilikda, bir necha yil o'tgach, to'lov ilovalari yordamida kommunal to'lovlar, davlat avtomobil nazorati jarimalari va boshqa xizmatlar to'lanmoqda. Bu shuni ko'rsatadiki, jamiyatda yangiliklarni inkor etish orqali qabul qilish odati mavjud. Shuning uchun, bu yerda asosiy narsa, hammasi bosqichma-bosqich amalga oshirilishidir.

O'zbekistondagi barcha ta'lim tashkilotlari ham kompyuterlar va internet bilan yetarli darajada jihozlanganmagan, va biz buni yaxshi tushunamiz, shuning uchun ham biz tizimni faqat to'laqonli ishlash uchun zarur bo'lgan minimal imkoniyatlar mavjud bo'lgan Toshkent shahri va ba'zi viloyat maktablarida joriy etmoqdamiz. Biz ta'lim vazirligidan bunday maktablarning ro'yxatini olgan holda, ish boshlamoqdamiz. Shunga qaramasdan, ularning ba'zilarida tizimni joriy etish jarayonida biz qaerdadir

zaif internet, yana bir boshqa joyda kompyuterlar borligi, lekin eskiligi, yana bir yerda esa o'qituvchilar tarkibi hamma texnik bazaga ega bo'lgan holda texnologiyadan foydalanishni o'rganishni istamasligiga duch kelmoqdamiz. Biz bu haqda ta'lim vazirligidagi hamkasblarimizni xabardor qilmoqdamiz, toki ularda sodir bo'layotgan voqealar haqida aniq tasavvur hosil bo'lib, zarur choralar ko'rsinlar. 2021 yil oxirigacha XTV O'zbekistondagi barcha maktablarni yuqori tezlikdagi internet va barcha sinflarni shaxsiy kompyuterlar bilan ta'minlashni rejalashtirgan.

Ko'pincha bizdan Kundalikda ishlash uchun o'qituvchilar mustaqil ravishda planshet yoki smartfon sotib olishlari kerakmi, degan savol tez-tez so'raladi. Tushuntirib o'taman: o'qituvchilar hech narsa sotib olishlari zarur emas. Tizim ularning hayotini murakkablashtirish uchun emas, balki uni osonlashtirish uchun joriy qilinmoqda. Bunda men qog'ozbozlikdan ozod qilish, hisobotlarni qo'lda yozish, har bir dars bo'yicha har yili qayta-qayta ko'chiriladigan dars rejalarini qayta yozish va hokazolarni nazarda tutyapman.

□ Sizningcha, raqamlashtirish O'zbekistondagi ta'lim sohasida qanday aks etadi?

□ Kundalikning asosiy maqsadlaridan biri □ byurokratiya darajasini pasaytirish va ta'limni yanada sifatli, arzon va ijodiy qilishdan iborat. Buning natijasida bolalar materialni yaxshiroq o'rganadilar, yozilgan uy vazifalarini tekshirish, ota-onalarning o'qituvchilarga qo'ng'iroqlari va hakozi kabi «maishiy» muammolar hajmi kamayadi.

Men ta'lim jarayonining barcha murakkabliklarini yaqindan bilaman. Bu asosan hujjatlarni rasmiylashtirish bilan bog'liq: jurnal yuritish, hisobotlarni tayyorlash, har bir dars bo'yicha ish rejalarini □ bularning barchasi kunba-kun qog'ozda to'ldiriladi. Ta'limni raqamlashtirish o'qituvchining hayotini osonlashtiradi va tinchlashtiradi. Jurnal yo'qolmaydi, endi uni buzib qo'yish mumkin emas, zamazka haqida umuman unutishingiz mumkin. Yo'qlama qilishlar va uy vazifasini yuz martalab takrorlash o'tmishda qoladi. Bundan tashqari, «qog'ozli» jarayonlarni avtomatlashtirish juda ko'p vaqtni tejaydi. Qisqasi, tizim maktabning kundalik hayotini sezilarli darajada osonlashtiradi. Bolalardagi barcha yutuqlar va bilimidagi bo'shliqlar qayd etib boriladi. Ma'lumotlarning ochiqligi va ishonchliligi ota-onalarga bolani yo'naltirishga, kerakli mavzular va fanlar bo'yicha o'z vaqtida shug'ullanishga yordam beradi.

Topilmalar shuni ko'rsatadiki, elektron kundaliklar an'anaviy qog'oz kundaliklarga nisbatan muhim afzalliklarga ega. Hosildorlik va vaqtni boshqarishning o'sishi asosan muhim vazifalarni e'tiborsiz qoldirish xavfini minimallashtiradigan raqamli eslatmalar va bildirishnomalarning mavjudligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, elektron kundaliklar jismoniy daftarlarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirib, yanada barqaror va joyni tejaydigan variantni taqdim etadi. Biroq, ba'zi foydalanuvchilar ekran charchoqlari va raqamli qurilmalarga ishonish kabi cheklovlarni qayd etishdi, bu esa vaqti-vaqti bilan unumdorlikka to'sqinlik qilishi mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, elektron kundaliklar zamonaviy tashkilot va samaradorlik uchun kuchli vositadir. Ular qulaylik, portativlik va boshqa raqamli platformalar bilan integratsiya, vaqtni boshqarishni kuchaytirish va kognitiv stressni kamaytirish nuqtai nazaridan foyda keltiradi. Elektron kundalik ilovalaridagi kelajakdagi o'zgarishlar ekran charchoqlari kabi muammolarni hal qilish va ish va hayot muvozanatini yaxshiroq kuzatish uchun xususiyatlarni o'z ichiga olgan foydalanuvchi interfeysi dizaynlarini yaxshilashga qaratilishi mumkin. Tashkilotlar va shaxslar ish oqimlarini va kundalik rejalashtirishni optimallashtirish uchun elektron kundaliklarning imkoniyatlarini o'rganishga da'vat etiladi.

Adabiyotlar.

1. Namazov B., Fayziyeva M., Sharofiddinov Sh. Media va axborot savodxonligi: o'quv qo'llanma. □ T.: Baktaria-Press, 2018. UNESCO, 2018. 13 b.t
2. Jumankuziev, U. □ "USING NEW APPROACHES TO TEACHING PROGRAMMING LANGUAGES IN SECONDARY SCHOOLS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.5 (2023): 280-283.
3. O., Ktam, O., Li Jumanqo., Ziyev, and Islombek To., Lqinjon O., G., Li. „MAKTAB O'QUVCHILARINING AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY QONUNLARI VA TAMOIYILLARI." Academic research in educational sciences 2.CSPI conference 1 (2021): 1073-1077.
4. Jumankuziev, Uktamjon, and Utkir Yuldoshev. „Podxody obucheniya yazыkam programmirovaniya v obщeobrazovatelnyx shkolax." Obщество i innovatsii 2.5/S (2021): 344-350.
5. Yuldoshev, Utkir, and Uktamjon Jumankuziev. „Opredelenie vedущix pedagogicheskix zakonomernostey i osnovopolagayushix principov formirovaniya informatsionnoy kultury detey shkolnogo vozrasta." Obщество i innovatsii 2.5/S (2021): 68-76.